

Surxondaryoda bolalarni yozgi sog'lomlashtirishga jalb qilish ishlari boshlanmoqda



Ertadan boshlab viloyatdagi tanlab olingan maktablar qoshida tashkil etilgan bolalarni yozgi dam oldirish mavsumida kunduzgi sog'lomlashtirish maydonchalari o'z faoliyatini boshlaydi. Shuningdek, viloyatdagi barcha oromgohlar bolalarni qabul qilishga shay holatda.

Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Qumqo'rg'on tumaniga tashrifi chog'ida 27-sonli maktab qoshida tashkil etilgan kunduzgi sog'lomlashtirish maydonchasi bilan tanishdi.

Maktab qoshidagi sog'lomlashtirish maydonchasida yaratilgan sharoitlar, to'garak xonalarining jihozlanishi, ovqatlanish va dam olish joylarining tashkil etilishi ko'zdan kechirildi. Mas'ullarga bolalarning sog'lomlashtirish maydonchasiga kunlik kelib-ketishi, dam olishi va mashg'ulotlarni o'tashlarini sifatli tashkil etish hamda belgilangan talablarga asosan ovqatlanishini ta'minlash vazifalari topshirildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)